



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

B. Tuxtayeva¹

NavDPI O'zbek tili kafedrasи katita o'qituvchisi

Email: bibigul-uzlit2020@mail.ru

Tel: +998913398033

**ADABIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UZVIYLIK VA
UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSION YONDASHUV
VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

Annotation: Adabiyot boshqa fanlardan farq qilib, san'at sifatida inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkurini, ma'naviy dunyosini boyitishda eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Adabiy ta'lism oldida turgan vazifalar ham badiiy asarlarni chuqur tahlil etishni talab qiladi. Chuqur tahlil yosh avlodni ma'naviy jihatdan kamol topishida muhim manba bo'la olishi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: barkamol shaxs, malakali mutaxassis, mahorat, muammoli ta'lism, izchillik, tahlil, sog'lom fikr.

**ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ОБЕСПЕЧЕНИЮ
ПРЕЕМСТВЕННОСТИ И НЕПОСТОЯНСТВО В ПОВЫШЕНИИ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ЕГО
СПЕЦИФИКИ**



Аннотация: В этой статье обсуждается что литература является источником духовности, одним из главных инструментов воспитания подрастающего поколения, пропитая в их сознание наши национальные ценности. В статье так же говорится что если разбор произведения является непродуктивным, это может препятствовать поставленной цели перед обучением литературы “формирование компетентного поколения”

Ключевые слова: компетентная личность, опытный специалист, навык, проблемное образование, анализ, здоровая мышление.

AN INNOVATIVE APPROACH TO ENSURE CONTINUITY AND DISCONTINUITY IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF LITERARY EDUCATION AND ITS SPECIFIK FEATURES

Annotation: This article discusses that literature is a source of spirituality, one of the main tools for educating the younger generation, impregnating our national values in their consciousness. The article also says that if the analysis of the work is unproductive, this may impede the goal of teaching literature “the formation of a competent generation”.

Keywords: competent individual, experienced individual, skill, problematic education, analysis, health thinking.

Kirish. Butun dunyo ta’lim-tarbiya tizimida bo`layotgani kabi ta’lim mazmun-mohiyati insoniylashdi. Fikrning erkinligi jamiyatning kuchli bo`lishi garovi hisoblanadi. Shuning uchun ham “Ta’lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” kabi davlat ahamiyatiga molik hujjatlar asosida yangilangan milliy ta’lim tizimi mustaqil fikrlaydigan, o`z qarashiga ega bo`lgan, erkin, sog`lom e’tiqodli shaxsni shakllantirish, ularda yuksak ma’naviy fazilatlarni qaror toptirishdek kechiktirib bo`lmas ishni amalga oshirish yo`lidan bormoqda.

Ma’lumki, bugun barcha davlatlarda bo`lgani kabi O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham juda ko‘p yangiliklar bo`lmoqda. O’zbekiston Respublikasi ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar uning samaradorligini ta’minlash,



barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilgandir. Bu jarayonda ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, bu borada samaradorlikka erishish, shuningdek, yuksak malaka, pedagogik mahorat hamda chuqur mutaxassislik bilimlariga ega bo‘lgan pedagog kadrlar bilan ta’minalash kabi masalalarga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Taniqli adib Shukur Xolmirzayev “Adabiyot o’ladimi” sarlavhali maqolasida “xalqning dilidagini yoki uning tili uchida turgan narsani yozish” ham, jamiyat ravnaqiga xizmat qiluvchi muammo ko`tarish ham emasligining nazariy qirralarini ko`rsatib o`tgan.

Asosiy qism (Main body). “Adabiyot – abadiyatga da’vogar,-deb yozadi taniqli olim Qozoqboy Yo`ldoshev- Adib betizgin vaqt ni tizginlashga urinadigan zot. U tarixchidan farq qilaroq, zamon haqida axborot, ma’lumot bermaydi. Bil’aks, vaqt ni, odam umrining biror qismini hissiyotu sezimlar bilan tasvirga muhrlab, to`xtatib qo`yadi¹”.

Adabiyot metodikasi ilmi har bir adabiyot darsi oldiga tarbiyaviy, ta’limiy, yo‘naltiruvchi va rivojlantiruvchi kabi maqsadlar qo`yilishi lozimligini ko`zda tutadi. Adabiyot darslarida o’quvchiga so’zdan ta’sirlanish, so’z mohiyatini his qilishini o`rgatish zarur. Qachonki, o’quvchi adabiy qahramon shaxsi, hattiharakati, kechinmalari, iztirobu xursandchiligiga o’quvchi o’z fikrini va munosabatini bildira olarkan, unda qahramon qismatiga bee’tibor emasligi seziladi.

“Badiiy asarni to’laqonli o’zlashtirish yo’li tuyish va fikrlashning birligi hamda ularning o`zaro aloqadorligidadir.O’zlashtirish uchun fikrlash lozim bo`ladi. Har qanday asar zamirida uning tahliliga asos bo`ladigan jihatlar ifodalangan bo`ladi. Hamma gap tahlil jarayonida hayotiy va badiiy mantiq asosida mana shu unsurlarni ilg`ash va ajrata olishdadir²”.

¹Yo`ldoshev Q. Yoniqso’z. Toshkent. “Yangiasravlod” 2006. 35-bet.

²Xusanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.Toshkent. 2009. 41-bet.



Mazkur muammo umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan til va adabiyot fanlari bo'yicha yetarlicha o'z yechimini topmagan. Mana shu jihatlar uzviylik muammosining dolzarbligini ko'rsatadi. Umumiyl o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimlarida uzviylikni ta'minlash adabiyot o'qitish samaradorligining muhim omili ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Mazkur muammoni hal etish umumiy o'rta ta'lim mакtablarining adabiyot darslarida uzviylikni ta'minlash adabiy ta'lim mazmunini yanada mustahkamlaydi. Dasturdagi uzviylikni ta'minlash uchun fanni o'qitish izchilligini, yangi har bir bosqichda ayni bir mavzuni qanday hajmda o'tishni belgilab olish, bunda, albatta, o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olib, ular mazmunini sinflararo taqsimlash, o'quvchilarining moyilligiga qarab kasb tanlashga yo'naltirish lozimligi haqida mulohaza yuritish vaqt keldi.

Adabiy ta'lim oldida turgan vazifalar ham badiiy asarlarni chuqur tahlil etishni talab qiladi. Negaki, maktab oquvchilarida kitobga muhabbat o'qilgan kitobning sir-asrorini bilgandan keyingina shakllanadi.


Adabiyot boshqa fanlardan farq qilib, san'at sifatida inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkurini, ma'naviy dunyosini boyitishda eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Adabiyot darslarida ijodiyot, his-tuyg'u, sezgi, idrok, san'atni chegaralab bo'lmaydi. Aynan adabiy ta'lim o'quvchilarini his-tuyg'u orqali bilishga, tafakkur qilishga, go'zallikni ko'ra olishga, dunyoga bo'lgan munosabatini shakllantirishga imkon yaratadi.

Boshqa o'quv mashg'ulotlarida bilim ustivor bo'lsa, adabiyotda bolaning ko'ngli bilan, tuyg'ulari bilan ishlanadi. Badiiy asar insonning ichki tuyg'ularini, nozik sezimlarini, so'zga bo'y bermaydigan ruhiy holatlarini ifodalash vositasi ekanligi ko'zda tutilgandagina tahlil sog'lom mantiqqa muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlarni tahlil etish yo'l-yo'rig`ini fanning asoslarda o'rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlil qila olish

malakasiga ega bo‘lgan holda o‘quvchilar bilan yuzma-yuz bo‘lmash ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan maqsad amalga oshmaydi. Adabiyot o‘qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa “ijtimoiy nasihat”ligicha qolaveradi. Tahlil g`arib bo‘lganligi uchun adabiyot o‘qitish jarayoni oldiga qo‘yilgan bosh maqsad – barkamol shaxs shakllantirish amalga oshmaydi.

Adabiy ta’lim uch qudratli asos ustiga quriladi:




Agar:

- o‘qituvchining o‘zi ta’limiy tahlil malakasini egallamagan bo‘lsa;
- asardan faqatgina g`oya qidirsa ;

-adabiyot o'qituvchisi voqeabozlikka berilmasa, asardagi jamiki tasvirni bir chetidan o'quvchilarga aytib berishni adabiyot darsi deb tushunmasa;

-badiiy matndagi muhim jihatni nomuhimga ajratmasa;

-asardagi personajlarga jonli odam tarzida munosabatda bo'lishni o'rgatmasa asarni tahlil qilishga kirishmasligi kerak.



o'qitish kerak?

Adabiy asarning badiiy-estetik mohiyati uning kompozitsiyasini, ya'ni undagi turli-tuman qahramonlar, bir-biriga o'xshamaydigan sahnalar, manzara, joy, vaziyat, monolog, dialoglar, o'y, xayol, tush va boshqa turli komponentlarning murakkab tartibini o'rganish, sharhlash orqali o'zlashtiriladi. Tahlil jarayonida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalilaniladi. Bularning orasida adabiy o'qish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiy o'qishda matnning asl mohiyati dastlabki tarzda tasavvur etiladi. Uning o'zak muammolari o'quvchining ko'z oldida asonroq gavdalanadi. Adabiy o'qishda dastlabki urg'u tushishi lozim bo'lgan o'rinalar ajratiladi, ular o'quvchilarning ongiga ham, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Har bir asardan ma'naviyat qidirilishi zarur. Asardagi milliy iftixor, milliy g'urur, qadriyat, tarbiyaviy jihatga e'tibor qaratilsa, adabiyot darslari oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar to`laqonli bajariladi. Albatta, o'quvchining adabiy-estetik rivoji ham nazardan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni borliq



hodisalari va insoniy tuyg`ular tasviri nafosatini, badiiy so`z go`zalligini his qilishga o`rgatish bilan ularning dunyoqarashi shakllanishiga xizmat qiladi. Yaxshi tashkil etilgan adabiyot darslari o`quvchilar badiiy timsollarni nafaqat chuqur va to`liq o`zlashtiradilar, balki asar ustida ishlashga, fikrni og`zaki yoki yozma ravishda savodli bayon qilishga odatlanadilar. Asar qahramonlarining xarakter-xususiyati ustida ishlash o`rganilgan asarning ular qalbida bir umrga joy olishiga sabab bo`lishi mumkin.

Badiiy adabiyotning ilmdan tub farqi shundaki, u ma'naviy haqiqatlarni aks ettiradi, fan esa ilmiy haqiqatlarni ifoda etadi. Ilmiy haqiqat haqiqatligi fikr, mantiq orqali bilinsa, ma'naviy haqiqatni his-tuyg`u vositasida tuyish mumkin. Ma'naviy haqiqatlar inson mavjudligining maqsadini belgilab bersa, ilmiy haqiqatlar ana shu maqsadga erishishga xizmat qiladigan vositalarni topib beradi. Bu holat shuni ko`rsatadiki, inson faoliyatida ma'naviyat birlamchi ahamiyatga ega, ammo ilmsiz uni shakllantirish mumkin emas. Chunki ma'naviyatsiz fan bo`lmaganidek, ilmsiz ma'naviyat ham yo`qdir³.

Badiiy adabiyot olamni o`zlashtirishning o`ziga xos vositasi va manbaidir. Adabiyot – ma'naviyat sarchashmasi. U yosh avlodni tarbiyalashda, ular ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirishda asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Adabiyotni chinakam o`zlashtirish badiiy so`z go`zalligini his qilish va undan zavqlanishsiz aslo mumkin emas. San`atning har qanday turidan zavq olish uchun badiiy bilimdonlik zarur, albatta.

Xulosa (Conclusion). Bugun o`zbek milliy ta'lifi oldidagi muhim masala – mustaqil fikrlovchi, o`z fikrini erkin, asosli bayon qila oladigan, muammoli vaziyatlarga asosli munosabat bildira oladigan, uzviylik va uzlusizlikni ta'lim jarayonida to`g`ri his qila oladigan avlodni tarbiyalash. Bunda badiiy adabiyotning o`rni va ahamiyati beqiyos. Shuning uchun:

- Adabiy ta'limi bugungi davr talabiga asosan shakllantirish orqali oquvchilarida kitobga muhabbat hissini oshirish ;

³ Yo`ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Badiiy so`z qudrati. T: . “Sharq”2009. 7-bet.



- o‘qilgan asarlar mazmunini to’laqonli tushunish uchun uzviylik va uzluksizlikka e’tibor qaratish;
- Uzviylik masalasiga kengroq yondashish uchun muammoga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, adabiyot o‘qituvchilarining ilg`or ish tajribalari, boshqa mamlakatlar adabiyotida mazkur sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarga alohida e’tibor berish;
- nazariy mashg’ulotlardan ko’ra amaliy mashg’ulotlarga ko’proq e’tibor qaratish, ortiqcha takrorlarga yo’l qo’ymaslik;
- badiiy asar olamni o‘zlashtirishning o‘ziga xos vositasi va manbai ekanligi va uning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati hamda o’quvchi ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirish uchun turli uslub va vositalardan o’rinli foydalanish lozim.

Bugungi kun ta’lim jarayoni ta’lim beruvchidan ham ta’lim oluvchidan ham jiddiy mas’uliyat talab etadi. Bu mas’uliyat adabiyot o‘qituvchisidan har qanday janrdagi asarni tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lishni talab etadi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2006.
2. Xusanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent, 2009.
3. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Badiiy so‘z qudrati. T: .“Sharq”, 2009.
4. Yo‘ldoshev Q. Adabiy saboqlar. Metodik qo‘llanma. Toshkent, “Bilim”, 2003.
5. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. Toshkent. 2010.
6. Ishmuxamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. TDPU. 2004.